

## RADIATSIYA TA'SIRIDAN SO'NG JIGAR TO'QIMASI VA PERIFERIK QON AMILOLITIK AKTIVLIGI XOLATI

Mirzabekov I.A., Qodirov Sh.Q.  
Andijon Davlat universiteti

**Annotatsiya:** Yadro energiyasi va radioaktiv moddalar. Tekshirish usullari. 1 Grey dozada nurlantirilganda. 2 Grey dozada nurlantirilganda. 4 Grey dozada nurlantirilganda. Jigar to'qimasida amilaza miqdori va qonda.

**Kalit so'zlar:** Jigar to'qimasi. Amilolitik faollik. Gomeostaz holati. Gamma nurlanish.

**Abstract:** Nuclear energy and radioactive substances. Inspection methods. When irradiated at a dose of 1 Gray. When irradiated at a dose of 2 Gray. When irradiated at a dose of 4 Gray. Amount of amylase in liver tissue and blood.

**Key words:** Liver tissue. Amylolytic activity. The state of homeostasis. Gamma radiation.

**Аннотация:** Ядерная энергетика и радиоактивные вещества. Методы проверки. При облучении в дозе 1 Грей. При облучении в дозе 2 Грей. При облучении в дозе 4 Грей. Количество амилазы в ткани печени и крови.

**Ключевые слова:** Ткань печени. Амилолитическая активность. Состояние гомеостаза. Гамма-излучение.

**Ishning maqsadi.** Yadro energiyasi va radioaktiv moddalarning xalq xo'jaligida, ilmiy-tekshirish institutlarida va tibbiyotda keng qo'llanilayotganligini xisobga olib ferment gomeostazi va jigar to'qimasi amilolitik aktivligiga radiatsiyaning ta'sirini o'rganishni maqsad qilib oldik.

Tekshirish usullari va materiallari. Tajribada 60 ta 170-200 gramm voyaga yetgan erkak oq kalamushlar ishlatilgan. Kalamushlar «Luch» apparati yordamida So60 (-kvant berib nurlanadi. Nurlantirish yuzasi 20x20 sm, fokus masofasi 75 sm. Nurlantirish dozasi 0,86-0,85 Gr/min. Yutilgan doza miqdori 4 Grey. Nurlangan kalamushlar oddiy qafaslarda (harakati chegaralanmagan holda) saqlangan va 1-, 3-, 10-, 20-, 30-, 60- sutkadan jigar to'qimasi tarkibidagi va qon tarkibidagi fermentlar gomeostaz holati o'rganilgan.

Olingan natijalar va muxokamasi. 1 Grey dozada nurlantirilgandan 1 kun o'tgandan so'ng kalamushlar qonidagi amilolitik aktivlik kontrol guruhi ko'rsatkichi darajasida qoldi, ya'ni ferment aktivligi o'zgarmadi. Nurlantirilgandan 3, 7 va 30 kun o'tgandan so'ng qondagi amilolitik aktivlik 3-4 % ga pasaydi. Qondagi amilaza fermentining, maksimal (8%) pasayishi nurlantirilgandan so'ng 10 kun o'tganda kuzatildi. Nurlantirilgandan so'nggi 20-, 45- va 60-kunlari qonning amilolitik aktivligi dastlabki holatga qaytdi, ya'ni kontrol guruhi ko'rsatkichi bilan teng bo'ldi.

2 Grey dozada nurlantirilgan tajriba kalamushlari qonidagi amilolitik aktivlik 1-kundan so'ng kontrolga nisbatan pasaydi va 7-kunda u maksimal darajaga (16%) yetdi. 45 kunda tajribadagi kalamushlar qoni amilolitik aktivligi kontrol guruhi ko'rsatkichiga yetdi, ya'ni dastlabki holatga qaytdi.

4 Grey dozada ta'sirlangan kalamushlar qonidagi amilolitik aktivlik nurlantirilgandan so'ngi 3, 7, 45 kunlarda kontrol ko'rsatkichiga nisbatan 10-12% ga pasaydi, qolgan kunlardagi

kuzatishlarda 3-6 %gacha pasaydi. Nurlantirilgandan 60 kun o‘tganda ham ushbu ferment aktivligi qonda dastlabki holatga qaytmadi.

1-4 Grey nurlantirilganda qondagi amilolitik aktivlik jigar to‘qimasidagiga nisbatan ozroq o‘zgarishga uchragan, ya’ni organizm ushbu fermentning qondagi miqdorining doimiyligini-gomeostazini saqlashga yo‘naltirilgan mexanizmlarini ishga tushirgan. Bu mexanizmlardan biri ushbu ferment inkretsiyasining intensivligi bo‘lib, me‘da osti bezi bu jarayonni kuchaytirganligi tufayli qondagi amilaza miqdori kamroq o‘zgargan degan fikrga kelmoqdamiz. Gamma nurlanish ta’sirida ushbu ferment sekresiyasi susayganligi tufayli amilaza gomeostazi dastlabki holatdan o‘zgargan.

#### **Adabiyotlar:**

1. Абдурахмонов Х.Х., Камакин Н.Ф., Коротко Г.Ф. Выделение потовыми железами человека пепсиногена, амилазы и щелочной фосфатазы // Физиология. – 1975. – т. 61, № 9. – С. 1421-1426.

2. Ашурова Р.Э., Кодиров Ш.К. Гипокинезия таъсирида қон зардоби таркибидаги аμιлолитик активликнинг ўзгариши /АДУ 75 йиллига бағишланган “Илмий ва услубий тадқиқотдан амалиётга” конф. материал. – Андижон, 2007. – Б. 260-261.

3. Ашурова Р.Э., Кодиров Ш.К. Қон липолитик активлигига гипокинезиянинг таъсири /АДУ 75 йиллига бағишланган “Илмий ва услубий тадқиқотдан амалиётга” конф. материал. – Андижон, 2007. – Б. 261-262.

4. Бабаева А.Г., Шубникова Е.А. Структура, функция и адаптивный рост слюнных желез. – М.: Изд-во Московского университета, 1979. – С. 45-48. 5. Барабаш Р.Д. Энзимологические механизмы в патогенезе воспалительно дистрофического поражения пародонта.: Автореф. дис. ... докт. мед. наук. – М., 1981. – 30 с.